

O'ZBEKISTONDA BRONZA DAVRI AHOLI TURAR-JOYLARI TUZILISHI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHALAZALAR.

Nurmetov Sardor Baxtiyorovich

Urganch innovatsion universiteti talabasi

Telefon raqam: +998970927111.

Elektron pochta: sardornur.7111@gmail.com.

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston xo'jalik-madaniy hududlarida bronza davri turar-joylari xususiyatlari to'g'risida innovatsion yondashuvlarga asoslangan g'oyalar ilgari surilgan.*

Резюме: *В статье представлены основанные на новаторских подходах представления об особенностях поселений эпохи бронзы в экономических и культурных регионах Узбекистана.*

Summary: *The article presents ideas based on innovative approaches about the characteristics of Bronze Age settlements in the economic and cultural regions of Uzbekistan.*

Kalit so'zlar: *Turon , Xorazm, Zarafshon, Tuyamo'yin, Sulton Sanjar, Qo'shbuloq , Qarriqizil, Ulonbuloqsoy.*

Ключевые слова: *Туран, Хорезм, Заравшан, Туямойин, Султан Санжар, Кошбулок, Каррикызил, Уланбулоксой.*

Keywords: *Turan, Khorezm, Zarafshan, Tuyamoyin, Sultan Sanjar, Koshbulok, Karriqizil, Ulanbuloksoy.*

Kirish

Turon pasttekisligi markazida tabiiy manbalar , muqaddas zamin, iqlim sharoiti, geografik muhiti, ekologiya zaxirasi serobligi hamda sernam va serunum dehqonchlikka qulay Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Xorazm va Surxondaryo kabi hududlari mavjudligi eng qadimgi davrdan boshlab ijtimoiy hayot rivojlanishiga qulay imkoniyat hosil qilgan. Shu bilan birga O'zbekiston hududining geografik o'rni strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan Sharq hududlaridan farqlanish xususiyatiga ega. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan munosabatlardan ma'lumki, geologik jarayonlar ta'sirida O'zbekiston yer yuzasi tuzilishi ikki geografik manzaradan, ya'ni tog'li va tekislik hududlardan iboratdir.

Markaziy Osiyo hududlari kabi O'zbekistonda ashel davri quyi bosqichidan boshlab, aholi joylashib bronza davrida mavjud bo'lgan tabiiy manzaradan o'z manfaatlarida foydalanishga imkon bergan yer sathi va tekislikda yarim yerto'la shaklidagi manzilgohlar xizmat qilgan. Darhaqiqat, miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalaridan boshlab O'zbekiston madaniy-xo'jalik hududlarida etnik munosabatlarda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bronza davri aholisining joylashishi turar-joylar tuzilishi ularning qurilish uslubida yuz bergan o'zgarishlardan kelib chiqib, ularni ikki turga ajratish imkoniyatini hosil qildi.

1-tur. Sharq materigining mintaqasi bo'lgan Janubiy Turkmaniston qabilalarining bir qismi tarix taqozosiga ko'ra , Surxon vohasiga kelib joylashib turar-joy qurilishida binokorlik bilimlarini amalga oshirganlar.

2-tur. O'zbekistonning boshqa hududlari aholi turar-joylari rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston xo'jalik-madaniy hududlarida bronza davri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishiga eneolit davri aholisi natijalari asos bo'lishini ikki tarixiy bosqichga ajratish mumkin.

1-bosqich. Miloddan avvalgi III mingyillik II yarmi – II mingyillik birinchi yarmi.

2-bosqich. Miloddan avvalgi II mingyilliklar II yarmi va oxiri.

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha , Xorazm, Zarafshon hamda Toshkent hududlarida istiqomat qilgan aholining yer sathi va yarim yerto'lalarda , qurilish ashyolari, yog'och ustunlar, novdalari, qobiqlari, qamishdan bo'lgan chaylalarda kundalik faoliyatlarini olib borilishi jarayonida eneolit davri xo'jalik an'analari davom etgan.

Mazkur davrda Farg'ona vodiysida xo'jalik sohalarini olib borgan ziroatkor aholi Chust manzilgohi tuzilishida farqlanish xususiyati mavjud bo'lgan. Surxondaryo hududi esa etnik jarayonlar maydoniga aylangan emas.

O'zbekiston hududiga shimoliy tarafdin ko'chmanchi-chorvador qabilalarning , Turkmaniston janublaridan esa ziroatkor qabilalarning Surxon vohasi shimoli-g'arbiy hududiga kelib joylashib, yangi geografik sharoitda amaliy xo'jalik mashg'ulotlarini davom ettirishganini yoritish nazarga olingan.

Asosiy qism

O'zbekiston tarixida bronza davri jamiyatlarida yuz bergan tub o'zgarishlarni , turar-joylar tuzilishida aks etgan o'zgarishlari bilan O'rta Osiyo bronza davri tarixida muhim bosqich sifatida o'z tarixiy o'rniga ega. Janubiy Orolbo'yi yerlari geologik jihatdan Volgabo'yi janubi, janubi-sharqiy Ustyurt, Qozog'istonning sharqiy qismi va G'arbiy Sibir dasht hamda o'rmon-dashtlarga ulanishi munosabati bilan ularning chegaralarida joylashib, kenglikni hosil qilgan.

Janubiy Orolbo'yi , Tuyamo'yin hududlarida bronza davrida istiqomat qilgan aholi jamoalari uyushmalari geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, tabiiy sharoit va Amudaryo suv sathining goh ko'tarilishi, goh pasayishi natijasida turar-joylar o'rnini o'zgartirib turishga majbur bo'lganlar. Xo'jalik asoslari, mehnat qurollari, turmush tarzida xizmat qilgan mahsulotlar mos bo'lgan. Albatta bunday murakkab sharoitda aholi nafaqat tabiiy sharoit xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, rivojlanish jarayonlari va texnologik intilishi innovatsiyalarga asoslanib jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shganlar. Miloddan avvalgi III mingyillik o'rtalarigacha, Oqchadaryo havzasi, Tuyamo'yin hududlarida neolit davri urug' jamoalari yangi avlodlari qumtepaliklar oralig'ida suv havzalari sohili adog'iga ulangan balandliklarda yarimyerto'la chaylalarda yashab, ajdodlari olib borgan xo'jalik an'analari davom ettirganlar. [1. 1948 – C. 66-67. 2. 1977 – C. 140]

Bunday xo'jalik an'analari Tuyamo'yin hududi atroflarida suv havzalari sohili etaklarida Sulton Sanjar, Qo'shbuloq va Qarriqizil manzilgohlarida istiqomat qilgan aholi kundalik faoliyatlarida kuzatiladi. [3. 1991 – C. 66-79]

Zarafshon vodiysida bronza davrida joylashgan aholining xo‘jaligini olib borishda ikki xil yo‘nalish davom etgan. Birinchi yo‘nalish – Quyi Zarafshon vodiysi hududida xo‘jalik mashg‘ulotlarini olib borishga imkon bergan yer sathiga qurilgan manzilgohlarda yashagan aholi “qayr” dehqonchiligi va uy chorvachiligi asosiy mashg‘ulotlari bo‘lgan bo‘lsa, tog‘li hududlarda aholi asosiy xo‘jaligining geografik xususiyati chorvachilik yo‘nalishi bo‘lgan. [4. 1966 – C. 80-92. 5. 1962 – C. 59]

Farg‘ona va Toshkent hududlari bronza davri geografik xususiyati sharoitida xo‘jalik an‘analari rivojlanish jarayonida o‘z xususiyatlari bilan farqlanishi aks etgan. Sharqiy Farg‘ona, Dashtli-Sopolli madaniyatiga o‘xshash idish-tovoqlar va Farg‘ona vodiysi markazida Xaq bronza ashyolari miloddan avvalgi II mingyilikka oid bo‘lib, ularning xo‘jalik asosi chorvachilik bo‘lgan. [6. 1966 – C. 205]

Shu bilan birga Chust madaniyati o‘troq ziroatkor aholisi va chorvador qabilalarining o‘zaro olib borgan munosabatlari negizida miloddan avvalgi II mingyilliklar ikkinchi yarmida so‘nggi bronza davrida Chust madaniyati qaror topgan. Xo‘jaliklarda faoliyat olib borgan aholi yarimyerto‘la shaklida turar-joylar, kulolchilik ashyolarining qo‘lda yasalish xususiyatlari chorvador qabilalarning binokorlik va kulolchilik uslublariga o‘xshaydi. [7. 1962 – C. 328. 8. 1974 – C. 32-35]

Toshkent vohasi ham chorvador qabilalar kelib joylashgan, ularning xo‘jalik madaniyatiga oid moddiy ashyolar Burchmulla, Yangiyo‘l atroflari, Chirchiq va Ohangaron daryolari sohili etagiga ulanib ketgan hududlarda Andronovo-Tozabog‘yob madaniyatini olib borgan chorvadorlar o‘rnashib, ularning xo‘jalik madaniyati Burg‘ulik atamasida tarix sahifalaridan o‘rin olgan. [9. 1982 – C. 95]

Miloddan avvalgi II mingyillik o‘rtalarida Janubiy Turkmaniston Murg‘ob daryosi havzasida o‘rnashgan ziroatkor aholi binokorlik bilimi, kulolchilik ashyolari, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va diniy etiqodlari bilan bir guruh hunarmand vakillari Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Muzrabot dashtiga, Sherobod daryosining quyi havzasi Ulonbuloqsoy etagidagi tekislikda xom g‘ishtdan uch qatorli mudofaa devor urib olgan turar-joylar bunyod qilganlar. Bu badiiy adabiyotlarda Sopollitepa etnotoponomikasi bilan ma‘lum. [10. 1977 – C. 150]

Natijalar

Bronza davri jamiyati kechgan tarixiy jarayonlarga mansub bo‘lgan adabiyotlarda qayd qilingan ma‘lumotlar asosida O‘zbekiston hududida tosh davridan yashab kelib, bronza davrida olib borgan xo‘jalik an‘analariga imkon bergan turar-joylarni joylashish topografiyasi ularning rivojlanish bosqichlari jarayonida tuzilish xususiyatlari natijalari qayd qilingan.

Xulosa

Shu tariqa yuqorida keltirilgan tarixiy ma‘lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini yaratdi.

O‘zbekiston hududi bronza davri barcha viloyatlarida uy chorvachiligi va dehqonchilik xo‘jaliklari ustunlik qilib, aholining kundalik taomnomasida oziq-ovqat mahsulotlari xilma-xilligi ko‘paygan, jamiyat iqtisodiy tizimida ishlab chiqarish xo‘jaligi rivojlanib, o‘zlashtiruvchi xo‘jalik esa aholining oddiy kasbi-koriga aylangan.

Darhaqiqat ishlab chiqarish xo‘jaligi taraqqiyotning rivojlanishga bo‘lgan ta’siri eneolit davri xo‘jaligi an‘analari asosida davom etgan.

Kopetdog‘ oldi etaklari va Murg‘ob daryosi havzasi atroflarida miloddan avvalgi II mingyillik o‘rtalariga kelib aholi soni miqdor jihatdan oshib ketishi, oziq-ovqat muammosining vujudga kelishi Qoraqum sharosi sharoitida sug‘orma dehqonchilik qiyinchiliklarini nazarga olgan ziroatkor aholi Go‘nurminorning bir qismi Surxon vohasiga kelib , sernam va serunum tekislikni o‘zlashtirish, Ulonbuloqsoydan sug‘orish shaxobchalarini qazib, dehqonchilik va uy chorvachiligi, binokorlik bilimi sohasida gullagan tajribasini to‘rt tomoni uch qatorli mudofaa devor bilan o‘rab olingan turar-joyni bunyod qilganlar. Turar-joy kvadrat shaklda , ichki tuzilishi mahallalarga bo‘lingan. Uy xonalari paxsa va to‘rtburchak xom g‘ishtdan tiklangan. Kulolchilik idish-tovoqlari charxda ishlangan, mis va bronzadan qilingan kulolchilik ashyolari ishlab chiqilib, o‘troq dehqonchilik xo‘jaligining yangi geografik sharoitda rivojlantirganlar.

O‘zbekistonning markaziy , shimoli-g‘arbiy va shimoli-sharqiy hududlarida istiqomat qilgan aholi xo‘jaligida “qayr” dehqonchiligi jamiyatga kirib kelgan. Uy chorvachiligi rivojlanishiga mazkur hududlarda istiqomat qilgan aholi turar-joylari yarim yerto‘la , idish-tovoqlar qo‘lda tayyorlanganligini nazarga olib, Sopollitepaliklarning binokorlik bilimi, mehnat qurollari texnologiyasi jihatdan ancha uzoqda bo‘lganlar degan xulosani qayd qilish joiz. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy, g‘arbiy va janubi-sharqiy hududida miloddan avvalgi II mingyilliklar o‘rtalarida Volga va Don oralig‘i hamda Qozog‘iztonning shimoli-sharqiy hududlarida ko‘chmanchi qabilalar Janubiy Oqchadaryo, Quyi Zarafshon, Qizilqum, Toshkent vodiysi Ohangaron hududlariga kelib joylashib, tub aholi bilan omuxtalashgan.

Tarixiy adabiyotlarda O‘zbekiston bronza davri istiqomat qilgan o‘troq aholi olib borgan xo‘jaligi turlicha bo‘lgan hamda Suvyorgan, Tozabog‘yob, Burgulyuk, Sopolli madaniyatlari qaror topgan. Janubiy Turkmanistondan ko‘chib kelgan ziroatkor aholi vakillari aholi tomonidan o‘zlashtirilmagan hududga kelib, etnik jarayonlarni yangi davrini boshlab bergan. Nega deganda Surxon vohasida neolit va eneolit davri aholisi manzilgohlari, dafn inshootlari to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar tadqiqotchilar asarlarida kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм – М, МГУ, 1948.
2. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья// Тр ХАЭЭ. – М, Наука, 1977.Т.Х.
3. Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы// Древности Южного Хорезма// Тр ХАЭЭ - М, Т-ХVI, 1991.
4. Гулямов Я.Г, Исламов Ю, Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орашаемого земледелия в низовьях Зарафшана. - Ташкент, 1966.
5. Культура Заманбаба в низовых Зарафшана. ОНУ– Ташкент, 1962. № 1.
6. Заднепровский Ю.А. Чустская культура в Ферганской долине// Средняя Азия в эпоху камны и бронзы. – М-Л, : Наука, 1966.



7. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы// МИА – М-Л, 1962. № 118.

8. Заднепровский Ю.А. Типы поселений и жилищ Ферганы бронзового века// Реконструкция древних общественных отношений по археологическому материалу жилищ и поселений – Л, : Наука, 1974.

9. Дуке Х. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. – Ташкент, : Фан. 1982 .

10. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент.: Фан. 1977 .

O‘zbekiston Respublikasi. Xorazm viloyati Urganch shahri. Nurmetov Sardor Baxtiyorovich. Urganch innovatsion universiteti. Stajyor-o‘qituvchi. O‘zbekistonda bronza davri aholi turar-joylari tuzilishi xususiyatlariga doir mulohazalar. Qadimgi davrlar tarixi va madaniyati.